

**REPRODUKTIV YOSHDAGI AYOLLARDA KONTRASEPTIV VOSITALARDAN
FOYDALANISH**

Djuraxodjayeva Gulnara Sattievna

Tibbiyot fanlari doktori

Olimova Misryo Jahongir qizi

*Farg’ona jamoat salomatligi tibbiyot institut Akusherlik va ginekologiya
yo’nalishi 3-kurs magistr.*

Annotatsiya: Reproductiv yoshdagи ayollarda kontraseptiv vositalardan oqilona foydalanishni o’rgatish, istalmagan xomiladorlikni oldini olish.

Kontraseptivlar – homiladorlikning oldini olish uchun qо ‘llaniladigan vositalar. Kontrasepsiya vositalarini qо ‘llashdan maqsad homiladorlikni rejalahtirish, ayol sog ‘lig ‘ini saqlab qolish, jinsiy hayotdan to ‘la qoniqb yashashdir.

Kontrasepsiya usullaridan foydalanish nima uchun muhim?

Har qanday kontraseptiv usul – sun’iy abortlarni kamaytiradi, ginekologik kasalliklar rivojlanishidan himoya qiladi, ayol va homila hayotiga xavf tug‘dirmaydi;

Rejali ravishda homiladorlikni amalga oshirish ayol kishi va uning oilasidagi muhit, moddiy holati va boshqa omillarda qiyinchiliklar tug‘dirmaydi;

Ba’zi bir kontraseptiklardan foydalanish bir vaqtning o’zida ginekologik kasalliklar, osteoporoz va bepushtlikni davolashda samara beradi.

Kontraseptiv vositalarning samarasi Perl indeksi bo‘yicha baholanadi, ya’ni bir yil davomida kontraseptiv usuldan foydalanilganda homiladorlik ro‘y berishi yoki bermasligi inobatga olinadi. Ko‘rsatkich qancha kam bo‘lsa, kontraseptiv vositaning samaradorligi shuncha yuqori bo‘ladi. Zamonaviy kontraseptiv vositalarning samaradorlik darajasi 0,2-0,5 ga teng bo‘ladi, ya’ni har 1000 ta ayol kishidan 2-5 tasida homiladorlik kuzatiladi.

Kontrasepsiya usullari klassifikatsiyasi

- Bachadon ichi;
- Gormonal;
- Barer;
- Fiziologik (tabiiy);
- Jarrohlik amaliyoti bilan sterillash.

Kontrasepsiya usullari haqida quyida bat afsil ma’lumot beramiz.

Bachadon ichi kontrasepsiyasi

A’zoga, ya’ni bachadon bo‘shlig‘iga “yot” bo‘lgan jismlarni joylash yo‘li bilan amalgा oshiriladi. Bachadon ichi kontrasepsiyasi yuqori iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda keng tarqalgan masalan Xitoy, Rossiya va Skandinaviya mamlakatlari. Bu usul XX asr boshlarida ilk bor qо ‘llanilgan va bunda bachadon ichiga turli xil metallardan tayyorlangan halqalar joylashtirilgan. 1935 yilda bachadon ichi kontrasepsiyasidan foydalanish inkor etildi, bunga sabab infektion asoratlар ko‘payib ketganligidir.

1962 yilda Lipps bachadon ichiga plastikmassadan tayyorlangan va uning uchida tortib olish uchun maxsus ipchasi bor bo‘lgan kontraseptiv vositani o‘ylab topdi. Shu vaqtdan boshlab bachadon ichi kontrasepsiyasini qo‘llash takomillashib bormoqda.

Bachadon ichi kontraseptiklari ikki xil bo‘ladi: inert va medikomentoz. Inert kontraseptiklar hozirgi kunda qo‘llanilmaydi. Medikomentoz vositalar esa o‘zida metal yoki gormonlar saqlaydi.

Qin halqasi hayz ko‘rish vaqtining birinchi kunida qinga joylashtiriladi va 3 haftagacha qoldirilishi mumkin. Bu vaqt o‘tgach qayta hayz ko‘rish ro‘y beradi va kontraseptikning yangisi qo‘yiladi. Halqalardan ham oz miqdorda gormonlar ajralib chiqadi, bu ham homiladorlikdan himoya qilishni yanada ishonchlilagini oshiradi. Perl indeksi bo‘yicha 0,4 ga teng. Qin halqalari jinsiy hayotga, sport bilan shug‘ullanishga xalaqit bermaydi, umuman olganda ayol kishi ham uning jufti ham qinda halqa borligini sezmaydi. Halqalarnng qindan tushib qolishi haligacha qayd etilmagan.

“Yevra” nomli plastir mavjud, plastir teriga yopishtiriladi va hayz sikli belgilanadi va hayz ko‘rish vaqtida undan foydalanilmaydi. Teriga yopishtirilgan plastirlar orqali gormonlar qonga so‘riladi. Plastirlar o‘z-o‘zidan ko‘chib tushmaydi, suzish bilan shug‘ullanganda xalaqit bermaydi hamda quyosh nuridan toblanishda ham hech qanday diskomfort tug‘dirmaydi.

Inyeksiyon kontraseptiklar va implantatlar

Bu usul uzoq vaqt davomida homiladorlikni rejalshtirmaydigan ayollar uchun mos keladi. Preparat mushak orasiga 1 marotaba yuboriladi, uning samarasi Perl indeksi bo‘yicha 1,2 deb baholanadi.

Norplant nomli implantat preprat 6 kichik kapsuladan iborat. Uni teri ostiga mahalliy og‘riqsizlantrish yo‘li bilan joylashtiriladi, prepratning samarasi birinchi kundanoq boshlanadi va 5 yilgacha davom etadi. Perl indeksi bo‘yicha 0,2-1,6 ga teng.

Barer kontrasepsiya usullari

Barer kontrasepsiya usullarining eng afzal jihatlaridan biri jinsiy yo‘llar orqali yuqadigan kasalliklardan himoya qilishidir. Shu sababli bu usul juda keng tarqalgan. Ikki xil turi farqlanadi: kimyoviy va mexanik.

Kimyoviy usul

Spermitsidlar – spermatozoidlarni o‘ldiruvchi moddalar. Ularning samaralalik darajasi Perl indeksi bo‘yicha 6-20 ni tashkil etadi. Bu moddalar qin shamchalari, tabletkalari, krem va gellar ko‘rinishida chiqariladi. Qattiq shakldagi kontraseptiklar (shamchalar, tabletka va plenkalar) jinsiy aloqaga kirishdan 20 daqiqqa oldin qinga joylashtiriladi. Krem va gel ko‘rinishidagi moddalar esa qinga surilishi bilanoq ta’sir effektini boshlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Emergency Contraceptive PiLLs: Medical and Service Delivery Guidelines, Third Edition. ECEC, 2012: 16 p.

2. Репродуктивное здоровье населения России. Резюме отчета. Федеральная служба государственной статистики. Министерство здравоохранения Российской Федерации. Фонд ООН в области народонаселения (ЮНФПА). М., 2012. 58 с.
3. Дикке Г.Б., Ерофеева Л.В. Современные особенности национальной контрацепции: информированность, применение и эффективность. Вопросы гинек., акуш. и перинат. 2014. 1(5): 63-71.
4. Дикке Г.Б., Ерофеева Л.В. Особенности репродуктивного поведения молодежи. Акуш. и гинек. 2013. 12: 96-101.
5. WHO. Model List of essential medicines. 18th ed. Geneva: WHO, 2013. <http://mednet3.who.int/EMLib/>
6. Emergency Contraception: A guideline for service provision in Europe. ECEC, 2013: 14 p.
7. TrusseLL J, Rodriguez G, ELLertson C. Updated estimates of the effectiveness of the Yuzpe regimen of emergency contraceptio». Contraception. 1999. 59 (3): 147-51.